IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: HX34883848

№ 07/1

18.dekabr.2025-yil

“TASDIQLAYMAN”

“O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” AJ Bosh direktori R.R.Usmanov

“O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” AJda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va mazkur sohadagi qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida 2026-yilga mo‘ljallangan “YO‘L XARITASI”

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish shakli	Muddat	Mas’ul ijrochilar *
1.	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga kiritilayotgan o‘zgarishlarni o‘rganib borish.	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga kiritilayotgan o‘zgarishlarni o‘rganib borish va o‘rganish natijasiga ko‘ra shuningdek, qonunchilikka kiritilgan o‘zgartirishlardan kelib chiqib, idoraviy hujjatlarni muvofiqlashtirish yuzasidan O‘zRVB Rahbariyatiga takliflar kiritish.	Taklif	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga o‘zgarishlar kiritilishi bilan	Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi bo‘yicha mas’ul shaxs
2.	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish ehtimolligini aniqlash va baholash.	O‘zRVB tomonidan chiqariladigan hujjatlar (qaror, farmoyish, buyruq, yig‘ilish bayonlari va boshqalar) loyihalarini doimiy o‘rganib borish. O‘zRVB tomonidan tanlov (tender) va birja savdolari o‘tkazilishida raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratlar o‘tkazish.	Ma’lumot	Hujjatlar loyihasi kelib tushishi bilan	Faoliyatni huquqiy ta’minlash boshqarmasi boshlig‘i, Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi bo‘yicha mas’ul shaxs

3.	O‘zRVB xodimlarining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari oshirish.	O‘zRVB xodimlarining raqobat sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan o‘quv-seminar, trening, davra suhbati va shu kabi boshqa tadbirlar o‘tkazish.	O‘quv-seminari, davra suhbati	Bir yilda kamida 2 marta	Ta’lim markazi, Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi bo‘yicha mas’ul shaxs
4.	O‘zRVB xodimlarining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida test sinovlarini o‘tkazish.	Test savolarini ishlab chiqish va test jarayonida barcha xodimlarni ishtirokini ta’minlash.	Test	Bir yilda kamida 2 marta	Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi bo‘yicha mas’ul shaxs
5.	Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi faoliyati yuzasidan yillik hisobotni tayyorlash.	1. Amalga oshirilgan ishlar natijalari yuzasidan hisobot tayyorlash. 2. Monopoliyaga qarshi komplaens to‘g‘risidagi hisobotni rasmiy veb-saytga joylashtirish va Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasiga qarshi organga yuborish.	Hisobot	2026-yil 20-dekabr 2026-yil 25-dekabr	Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi bo‘yicha mas’ul shaxs
6.	Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi bilan doimiy axborot almashinuvini amalga oshirish.	Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi bilan elektron pochta, telegram va rasmiy veb-sayt orqali yangi loyiha va takliflar bo‘yicha axborot almashish.	Tashkiliy ishlar	Doimiy	Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi bo‘yicha mas’ul shaxs
7.	O‘zRVBda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va mazkur sohadagi qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida 2026-yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xarita”sini tasdiqlash.	“Yo‘l xarita”sini ishlab chiqish va tasdiqlash.	Yo‘l xaritasi	2026-yil 25-dekabrga qadar	Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi bo‘yicha mas’ul shaxs

*** Mas’ul ijrochilar boshqa ishga o‘tishi munosabati bilan, shuningdek, ishda vaqtincha bo‘lmagan davrlarda (mehnat ta’tili va boshqa hollarda), ularning o‘rniga tayinlangan yoki vazifasi yuklatilgan shaxslarga mas’ul ijrochilarning vazifalari yuklatiladi.**